



MAKROIQTISODIYOT

330. p(04)
M 18

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**

**N.M. MAXMUDOV, A.B. SHAKAROV, X.A. ULASHEV,
J.A.SHAKAROV**

MAKROIQTISODIYOT

(Darslik)

(Kredit-modul bo'yicha)

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan**

8147

TOSHKENT – 2022

UO‘K: 330(075.8)

KBK 65.012.2ya7

M 86

**Makroiqtisodiyot. (Darslik) – T.: «Innovatsion
rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» 2022, 454 bet.**

ISBN 978-9943-7395-8-1

“Makroiqtisodiyot” fanidan darslik O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim standarti talablari va fan bo‘yicha namunaviy dastur asosida yozilgan. Darslikda O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining hozirgi rivojlanish bosqichini hisobga olgan holda makroiqtisodiy masalalarni ko‘rib chiqishga alohida e’tibor qaratilgan. Darslikda “Raqamli iqtisodiyot”, “Yashil iqtisodiyot”ning mohiyati va ularning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’siri yoritilgan. Darslikning har bir bobida xulosalar, mavzuni mustahkamlash uchun masalalar berilgan. Darslikning oxirida asosiy iboralari bo‘yicha glossariy va makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari ilova shaklida berilgan. Ushbu darslikdan Oliy ta’limning iqtisodiyot yo‘nalishlarida ta’lim olayotgan bakalavr, magistrlar va dars berayotgan o‘qituvchilar foydalanishlari mumkin.

UO‘K: 330(075.8)

KBK 65.012.2ya7

Mualliflar:

**N.M. MAXMUDOV, A.B. SHAKAROV, X.A. ULASHEV,
J.A. SHAKAROV**

Taqrizchilar:

B.Salimov – iqtisodiyot fanlari doktori, TDIU “Sanoat iqtisodiyoti” kafedrası professori;

M.Muhammedov – iqtisodiyot fanlari doktori, SamISI “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrası professori.

ISBN 978-9943-7395-8-1

© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2022.

KIRISH

XX asrda rivojlangan mamlakatlarning xarakterli belgilari – bu ularning iqtisodiyotiga ilmiy-texnik taraqqiyotning innovatsion yutuqlarini faol joriy etishdadir. Buning natijasida iqtisodiy o'sishda katta natijalarga erishildi, ikkinchi tomondan, milliy iqtisodiyotda yangi holat va jarayonlar payda bo'la boshladi. Bu esa o'z navbatida ularning milliy iqtisodiyot rivojlanish tendensiyalariga ta'sirini o'rganish bo'yicha obyektiv tadqiqotlar o'tkazishni talab qila boshladi. Bu esa o'z navbatida oldingi ma'lum metod va vositalar yetarli darjada hamda samarali emasligi aniq bo'ldi.

Makroiqtisodiyot fanining o'rganayotgan talabalar uchun bu muhim zamonaviy iqtisodiy hayot va boyitilgan iqtisodiy nazariya haqida ilmiy ishonchli bilimlarga ega bo'lish real iqtisodiyotning yangi ma'lumotlari bilan yanada to'liqroq yoritib beradi. Bu esa rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida bo'lib o'tayotgan jarayonlarni tadqiqot qilish bo'yicha yangi zamonaviy vosita va usullarni topishni talab qila boshladi. Buning natijasida iqtisodiy fanlar tarkibida yangi – makroiqtisodiy tadqiqotlar metodari yo'nalishi paydo bo'ldi, bu esa o'z navbatida iqtisodiy fanlar tarkibida alohida fan sifatida – makroiqtisodiyot vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatdi.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida iqtisodiyotni rivojlantirish va aholi turmush farovonligini yuksaltirish borasida ulkan yutuqlarga erishildi. Mustaqillikning dastlabki yillarida yuzaga kelgan murakkab muammolarning muvaffaqiyat bilan hal etilishi, makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlanishi, dastlab iqtisodiy pasayishni bartaraf etilishi va so'ngra iqtisodiy o'sishga erishish davlatimiz iqtisodiy siyosati iqtisodiy o'sish sur'atlarining barqarorlik kasb etganligi, mamlakatimizni rivojlantirish borasida keyingi yillarda qayd etilayotgan natijalar bu xulosalar qanchalik asosli ekanligini ko'rsatdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga to'xtalib: "Kelgusi yilda inflyatsiyaviy targetlash

doirasida narx-navo o'sishini 10 foizdan oshirmaslik Markaziy bank va Hukumatning asosiy vazifasi bo'ladi. Bu borada global pandemiya oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratish zarurligini yana bir bor tasdiqladi. Shu boisdan ham asosiy oziq-ovqat mahsulotlari narxining keskin oshib ketishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida import sohasidagi boj to'lovlari bo'yicha berilgan imtiyozlar yana bir yilga uzaytiriladi. Shuningdek, 2021-yilda iqtisodiyotni kamida 5 foizga o'sishini, byudjet defitsiti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 5,4 foizdan oshmasligini ta'minlashimiz zarur. Kelgusi 2 yilda esa byudjet defitsitini 2 foizdan oshirmaslik bo'yicha Hukumat zarur chora-tadbirlarni belgilashi lozim"¹ deb ta'kidlab o'tdi.

Davlat iqtisodiy siyosatining nazariy asoslari sifatida tan olinadigan fanlar qatorida "Makroiqtisodiyot" fani alohida o'rin tutadi.

Yalpi ishlab chiqarishining barqaror o'sishini, resurslarning to'liq bandliligini, inflyatsiyaning past sur'atlarini va to'lov balansining muvozanatini ta'minlash nuqtayi nazaridan mamlakat iqtisodiyotini bir butun holda tadqiq qilish va uni makroiqtisodiy tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini o'rganish - "Makroiqtisodiyot", fanining predmetini tashkil etadi.

Bu ta'rifdan ko'rinib turibdiki, "Makroiqtisodiyot" fani milliy iqtisodiyotning rivojlanishi bilan bog'liq barcha jihatlarni, jumladan mehnat resurslari, tovarlar, pul bozorlarining amal qilishi, monetar, fiskal va tashqi savdo siyosatini amalga oshirish hamda boshqa masalalarni qamrab oladi.

Ushbu o'quv qo'llanma "Makroiqtisodiyot" fanidan namunaviy o'quv dasturga kiradigan barcha mavzularni qamrab olgan.

O'zbekiston Respublikasi mustaqil taraqqiyot yo'lidan, mamlakatni modernizatsiyalash va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lidan izchil harakat qilib borar ekan, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish borasida ulkan yutuqlarga erishdi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожатномаси. 2020 йил 29 декабрь.